

QUR’ONNI TUSHUNISHDA SIYRAT ILMINING AHAMIYATI

Mo‘minov Muhammaddiyor
Toshkent Islom instituti 4 - kurs talabasi

Annotatsiya (O‘zbekcha): Ushbu maqola Qur’onni to‘g‘ri anglashda siyrat ilmining tutgan o‘rnini yoritadi. Unda Muhammad sallallohu alayhi vasallamning siyrati orqali oyatlarning mazmuni, tafsirga yondashuv va hayotiy talqinlar ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi. Maqolada siyrat va tarix munosabati, islom ilmlari rivojida siyratning roli, shuningdek, uni fiqhiy yondashuv bilan o‘rganish zarurati bayon etiladi. Natijada Qur’onni siyrat asosida talqin qilishning jamiyatdagi axloqiy, ma’naviy va ilmiy ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar (O‘zbekcha): Qur’on, siyrat, tafsir, tarix, Rosululloh, ma’naviyat, inson kamoloti, axloq.

Аннотация (Ruscha): Данная статья раскрывает роль науки сиры в правильном понимании Корана. В ней рассматривается, как биография Пророка Мухаммада ﷺ помогает осмыслению аятов, подходу к тафсиру и практическому применению в жизни. В статье также анализируются связи между сирой и историей, её значение в развитии исламских наук, а также необходимость фикхического подхода при изучении. В заключение рассматривается актуальность понимания Корана через призму сиры в контексте духовности и морали современного общества.

Ключевые слова (Ruscha): Коран, сира, тафсир, история, Посланник Аллаха, духовность, совершенство, нравственность.

Annotation (Inglizcha): This article explores the role of the science of Sīrah in understanding the Qur’an correctly. It examines how the life of Prophet Muhammad ﷺ aids in interpreting Qur’anic verses, shaping tafsir approaches, and applying them practically. The paper also addresses the relationship between Sīrah and history, its significance in the development of Islamic sciences, and the need for a fiqh-based methodology. Ultimately, it analyzes the importance of Sīrah-informed Qur’anic understanding for contemporary ethical, spiritual, and intellectual development.

Keywords: Qur’an, Sīrah, tafsir, history, Messenger of Allah, spirituality, human perfection, morality.

Insoniyatni zaloltdan saqlab qolish, uni haq yo‘lga boshlash, hayotiga ma’naviy asos berish uchun Alloh taolo azaldan payg‘ambarlar yuborgan. Ularning eng oxirgisi va eng mukammali — Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallamdir. U zotga nozil qilingan Qur’on karim esa, insoniyat uchun eng komil ilohiy hidoyat manbai sanaladi. Robbimiz bandalarini yaratib, ularni o‘z holiga tashlab qo‘ymadi. Aksincha,

ularning ikki dunyo saodatini ta'minlash uchun Qur'ondek muborak kalomini nozil qildi. Qur'on – ilohiy kitob bo'lib, unda insoniyat uchun zarur bo'lgan barcha ko'rsatmalar va asos tamoyillar mujassamdir.

Biroq Qur'onni to'g'ri anglash, uni tafsir qilish va hayotga tatbiq etishda faqat oyatlarning o'zi bilan cheklanib bo'lmaydi. Qur'onni tushunish — u qanday holatda nozil qilinganini, uni qabul qilib oluvchisi bo'lmish Rasululloh sallallohu alayhi vasallam oyatni qanday anglab, qanday izohlaganlarini va o'z hayotlarida qanday qo'llaganlarini bilishni talab qiladi. Ana shu nuqtada siyrat ilmining o'rni nihoyatda muhim ahamiyat kasb etishi ko'zga tashlanadi.

Siyrat — bu Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning hayot yo'llari, u zotning so'zlari, amallari va hayot tarzlari jamlangan muhim ilmiy manbadir. Siyratni chuqur o'rganmay turib, Qur'on oyatlarini to'g'ri tushunish, ularning maqsadini, tag zamiridagi hikmatni to'liq anglash mushkul bo'ladi. Zero, Rasululloh sallallohu alayhi vasallam Qur'onning ilk mufasssiri, uning amaldagi namunasi va ilohiy xitobni eng to'g'ri anglagan, nafaqat anglagan uni sahobalarga mukammal ta'lim bergan zotdirlar. Abdulloh roziyallohu anhu dedi: “O'zidan o'zga iloh yo'q Allohga qasamki, Allohning Kitobidan biror sura nozil qilinmaganki, men uning qayerda nozil qilinganini bilmasam. Allohning Kitobidan biror oyat nozil qilinmaganki, men uning nima uchun nozil qilinganini bilmasam. Agar tuyada yetsa bo'ladigan joyda Allohning Kitobini mendan yaxshiroq biladigan kishi borligini bilib qolsam, ulovga minib, albatta uning oldiga borgan bo'lardim”¹.

Shunday ekan, Qur'onni to'g'ri tushunishni istagan har bir inson avvalo siyratni chuqur va tizimli o'rganmog'i lozim. Siyrat — Qur'onning hayotdagi timsolidir. Qur'on nazariy asos bo'lsa, siyrat — uning amaliy ko'rinishi. Qur'on yo'l ko'rsatuvchi nur bo'lsa, siyrat — o'sha nurda qanday yurish kerakligini ko'rsatadigan yo'ldir. Qur'onni siyratsiz tushunishga urinish insonni noto'g'ri xulosalarga, ba'zan esa mutaassib yondashuvlarga olib borishi mumkin. Siyrat bilan uyg'un holda tushunilgan Qur'on esa — qalblarga nur, aqlga hikmat va jamiyatga adolat olib keladi.

Maqolaning maqsadi — Qur'onni to'g'ri anglashda siyrat ilmining tutgan o'rni va ahamiyatini ochib berish, Qur'oniy tafsirga siyrat yondashuvi zarurligini ilmiy asosda yoritishdir. Shuningdek, Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning hayotiy misollarini o'rganish orqali Qur'on oyatlarini qanday anglash lozimligi haqida metodik tavsiyalar berish ham ushbu maqolaning asosiy vazifalaridan biridir.

¹ Muhammad ibn Abdulloh. Sahihul Buxoriy -kitob, 5002-hadis

Payg‘ambar ﷺning siyrati: U qanday rivojlandi va bugun qanday tushunilishi kerak. Shubhasiz, hazrati Muhammad ﷺning siyrati musulmonlar uchun, ularning tili va yashash joyidan qat’iy nazar, faxrlanadigan buyuk tarixning asosidir.

Musulmonlar tarixni yozishni siyratdan boshladilar... Chunki ular tarixni yozishda avval Payg‘ambar ﷺning siyratidagi voqealarni yozishga kirishdilar, keyin esa bu siyratdan kelib chiqib, voqealar ketma-ketligini yozdilar va bu yozuvlar bugungi kungacha davom etmoqda.

Hatto Islomdan oldingi davr — jahiliyat davri, Arabiston yarim orolida sodir bo‘lgan voqealar ham musulmonlar tomonidan o‘rganildi, kuzatildi va yozildi. Bu ishda Islom nuri ularga jahiliyatni qanday tushunish kerakligini ko‘rsatdi va ular, asosan, hazrati Muhammad ﷺning tug‘ilishi va hayoti siyratini yozishga e’tibor qaratdilar.

Demak, siyrat Arabiston yarim orolida Islom tarixining yozilishi uchun markaziy o‘rin egalladi. U, birinchi navbatda, Arabiston voqealariga, keyinchalik esa butun Islom dunyosiga ta’sir ko‘rsatdi.

Arablar va musulmonlar tarixni yozishda juda aniq ilmiy metodga ega edilar. Ular voqealarni aniq va to‘g‘ri tarzda ajratib, ularni yozishda bunday metodni boshqa xalqlar orasida uchratish qiyin edi. Biroq, ular bu metodni siyratni aniq va to‘g‘ri yozishga majbur bo‘lgani uchun yaratdilar. Ular siyratni xato, noto‘g‘ri aralashmalar yoki soxta rivoyatlardan to‘liq holatda saqlashga harakat qildilar. Chunki ular bilardiki, Payg‘ambar ﷺning siyrati va sunnatlari — Qur’onni tushunishning asosiy kalitidir. Ular Qur’onni qanday to‘g‘ri tushunish va hayotga tatbiq etish haqida eng yuksak namuna bo‘ladilar.

Shu sababli, Rasululloh ﷺning payg‘ambar ekanligiga va Qur’onning Allohning kalomi ekanligiga bo‘lgan ishonch, shuningdek, Qur’ondan to‘g‘ri foydalanish mas’uliyatini zimmasiga olish, ular uchun siyrat va sunnat haqiqatlarini saqlab qolish uchun ilmiy metodni yaratishdagi asosiy sabab bo‘ldi.

Shundan ayon bo‘ladiki: Payg‘ambar ﷺning siyratini yozish musulmonlar tarixni o‘rganish va yozish uchun kirish eshigi bo‘ldi. Musulmonlar, rivoyatlar va xabarlarni aniq va to‘g‘ri yozish uchun ilmiy qoidalar yaratdilar, va bu qoidalar aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib paydo bo‘ldi: Islomning asosiy manbalarini va suvlarini to‘g‘ri saqlash zarurati, ularga begona yoki noxush narsa kirib ketmasligi uchun.

Payg‘ambarimizning siyratini o‘rganish va unga fiqhiy yondashishdan maqsad — faqatgina tarixiy voqealarni bilish, yoki voqealar va qiziqarli hikoyalarni bayon qilish emas. Shuning uchun, Payg‘ambar siyratini fiqhiy tarzda o‘rganishni oddiy tarixiy o‘rganishlardan deb hisoblash noto‘g‘ri bo‘ladi. Ya’ni, bu biron xalifa yoki o‘tgan tarixiy davr haqida umumiy tarixiy ma’lumot olishga o‘xshamaydi.

Asl maqsad – musulmon kishi o‘zining ongida tushungan Islom haqiqatlarini umumiy qoida va hukmlar shaklida emas, balki Muhammad sollallohu alayhi vasallamning hayotida namoyon bo‘lgan, gavdalangan shaklda tasavvur qilishidir.

Ya’ni, siyratni o‘rganish – bu amaliy mashq bo‘lib, Islom haqiqatini mukammal tarzda jonli misolda – Muhammad sollallohu alayhi vasallamda mujassam ko‘rishdan iboratdir.

Agar biz bu maqsadni batafsil tarzda qismlarga ajratmoqchi bo‘lsak, quyidagi aniq maqsadlarni sanab o‘tishimiz mumkin:

1. Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning shaxsiyatini (payg‘ambarlik maqomini) u zotning hayoti va yashagan sharoitlari orqali chuqur anglash. Bu orqali, Muhammad sollallohu alayhi vasallam o‘z qavmi orasida faqatgina iste’dodi bilan ajralib chiqqan dahiy emas, balki Alloh tomonidan vahiy va yuksak hidoyat bilan yuborilgan haqiqiy Payg‘ambar ekanligiga ishonch hosil qilish.

2. Har bir ezgu hayot sohasi bo‘yicha eng oliy namunani ko‘rish. Kishi shunga amal qilib, uni o‘ziga hayotiy dastur sifatida qabul qilishi va unga ergashishi kerak. Inson qaysi hayot sohasida oliy namunani izlamasin, albatta, Muhammad sollallohu alayhi vasallamning hayotida uni eng ravshan va mukammal shaklda topadi. Shu bois Alloh taolo u zotni butun insoniyat uchun namunali shaxs qilib belgilagan:

“Batahqiq, sizlar uchun–Allohdan va oxirat kunidan umidvor bo‘lganlar uchun va Allohni ko‘p zikr qilganlar uchun Rasulullohda go‘zal o‘rnak bor edi”².

3. Payg‘ambarimizning siyratini o‘rganish orqali Qur’oni Karimni anglashga va uning ruhiyati hamda maqsadlarini chuqur his qilishga erishiladi. Chunki Qur’on oyatlarining ko‘pchiligi Muhammad sollallohu alayhi vasallam boshdan kechirgan voqealar va u zotning bu voqealarga munosabatlari orqali tushuntiriladi va yoritiladi.

4. Payg‘ambarimiz siyratini o‘rganish orqali musulmon kishi e’tiqod, fiqhiy hukmlar va axloqiy qadriyatlarga doir ishonchli islomiy bilimlar bilan boyiydi. Albatta, Payg‘ambarimizning hayoti butun islomiy aqidalar va hukmlarning yorqin amaliy ifodasi bo‘lgan nurli namunadir.

5. Ustoz va da’vat qiluvchi uchun tarbiya va ta’lim uslublari bo‘yicha hayotiy namunani ko‘rsatadi. Muhammad sollallohu alayhi vasallam doimo ta’lim va tarbiyada eng samarali yo‘llarni izlagan, fidokor ustoz va ulug‘ murabbiy edilar.

Payg‘ambarimizning siyrati bu maqsadlarning barchasini amalga oshiradigan mukammal manba bo‘lishining eng muhim sababi – u zotning hayoti insoniy va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini o‘z ichiga olganidir. Ya’ni, inson qanday holatda bo‘lmasin – yolg‘iz shaxs sifatida ham, jamiyat a’zosi sifatida ham – Payg‘ambarimizning hayotidan o‘ziga tegishli namunani topadi.

² Qur’oni karim. Ahzob surasi 21- oyat

Demak, Payg‘ambarimizning siyratini o‘rganish – bu insoniy fazilatlarning barcha jabhalarini o‘zida jamlagan eng yuksak namunani ifoda etishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qur‘oni Karim.
2. Qur‘oni karim ma‘nolarining tarjima va tafsiri. Shayx Abdulaziz Mansur tarjimasi. “Sharq” nashriyot-matbaasi. “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi. 2007y.
3. “Tafsiri hilol”. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Toshkent: “Hilol nashr” 2008.
4. “Sahihi Buxoriy” Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2008.
5. “As-siyrat an- nabaviyya” Abdulmalik ibn Hishom. Toshkent: “Hilol Nashr” 2020.
8. Doktor Muhammad Said Ramazon Butitdiy Fiqhu-s-siyrati-n-nabaviyya. – Damashq: Doru-s-salom, 2020.